

ABDULLA QAHHOR – SATIRIK HIKOYALAR USTASI

Toshpo'latova Nilufar Narimon qizi
ChDPU Gumanitar Fanlar fakulteti, 2-kurs
Ilmiy rahbar: Usmonova Ziyoda

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "so'z san'atkori" Abdulla Qahhorning hayot va ijodi, hikoyanavislik borasida amalga oshirilgan ishlari haqida ma'lumot berib o'tilgan .*

Kalit So'zlar: *A.Qahhor, hikoya, ma'naviy yuksalish, ijodkor, nasriy asar, badiiy adabiyot, novella, adabiy me'ros, janr .*

Annotation: *This article provides information about the life and work of the "artist of words" Abdulla Qahhor, as well as his work in storytelling.*

Key Words: *A. Kahhor, story, spiritual growth, creator, prose work, fiction, novella, literary heritage, genre.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье представлена информация о жизни и творчестве «художника слова» Абдуллы Каххора, а также его работе в области повествования.*

Ключевые Слова: *А. Каххор, повесть, духовный рост, творец, прозаическое произведение, художественная литература, новелла, литературное наследие, жанр.*

Hikoya janri — badiiy adabiyotda kichik epik janrlardan biri bo'lib, hayot hodisalari, voqeliklarni ixcham ko'inishda ifoda etilishi bilan boshqa adabiy turlardn farq qiladi. Hikoya janri nafaqat jahon adabiyotida, balki milliy adabiyotimiz bo'stonida ham qadim an'ana va uslublarga ega hisoblanadi. O'tmishda hikoya janri folklor asarlar tarkibida bayon etish shaklida uchragan. Mustaqil janr sifatida esa faqat yozma adabiyotda shakllanish jarayonlarini bosib o'tgan. Yevropa adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga italyan yozuvchisi Bokachcho "Dekameron" asari bilan katta hissa qo'shgan bo'lib, asarda 7 qiz va 3 yigitning 10 kun davomida aytgan 100 ta hikoyasi berilgan. Gi de Mopassan (Fransuz), Ogenri (Amerika), A.P.Chexov (rus), A.Qodiriy, Cho'lpon, A.Qahhor (o'zbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham nomlanadi.

Har bir xalqning ma'naviy yuksalishi, kamol topishida o'sha xalqning "so'z ustalari", ijodkorlari yaratgan madaniy meros katta rol o'ynab, muhim ahamiyat kasb etadi. Aytishimiz mumkinki, ulkan so'z san'atkori Abdulla Qahhorning adabiy merosi xalqimiz ma'naviy tafakkurini komillikka yetaklovchi cho'qqilardan biri bo'lib, betakror ijodkor sifatida ham, ulug'vor fazilatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida ham xalqimiz ma'naviy hayotida manguликка aylangan siymo sifatida manguликка dahldordir.

Abdulla Qahhor xilma-xil janrdagi asarlari bilan ona Yurtimizning yaqin o'tmishining tarixi va o'z davrining to'laqonli manzarasini aks ettirib, zamondoshlarimizning yuksak

fazilatlarini faqat o'zigagina xos bo'lgan ijodiy uslubda tasvirlab adabiyotimizda hikoyanavislik maktabiga tamal toshini qo'ydi.

Adabiyotshunoslik yo'nalishida A.Qahhor ijodini o'rganishga taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinov [1], M.Qo'shchonov [2] larning tadqiqotlarida e'tibor qaratilgan. Adabiyot o'qitish metodikasi sohasida esa F.Egamberdievaning "Abdulla Qahhor ijodini pedagogik texnologiya asosida o'rgatish"; O.Usmonovning "Yozuvchi hayoti va ijodini adabiy tahlil va talqin usullariga tayanib o'rgatish"; mavzusidagi nomzodlik dissertastiyalari yaratilgan. M. Ziyodullaeva o'zining nomzodlik ishida yozuvchini maktabda o'rganish bo'yicha ish olib borgan (2008- yil) bo'lsa, S.Ismatov ham o'z qo'llanmasida (1978-yil) Qahhorni maktabda o'rganish yuzasidan fikrlarini bayon etgan. Metodik qo'llanma sifatida nashr etib boriladigan "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida M.Mirzarahimova, G.Nurmatova, Q.Husanboyevalarning Abdulla Qahhor ijodini o'rganish bo'yicha berilgan uslubiy maqolalar adabiy manbaa sifatida foydalaniladi.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotiga ajoyib hikoyasi va ushbu janrning tengsiz ustasi bo'lib kirib kelgan va o'zining hikoyalarida o'zbek xalqining eng yaxshi milliy ko'rinishlari — teran aqli, hajviylikka yo'g'rilgan hayotiy donoligini adabiy ko'rinishda tasvirlab bergan.

A. Qahhor o'ziga xos uslubi bilan chinakam milliy rassom, milliy urf-odatlarimizni o'z asarlarida tarannum etgan ijodkor hisoblanib, mavzu va voqeyilikni u o'zbekchilikdan, xalqimiz tilidan olib ijod etgan. Uning badiiy qahramonlari issiqqina tandirga suyangan ro'zg'or, milliylikni o'ziga jo aylagan marosimlar, odatlar bilan chambarchas bog'liqdir [3]. O'zbek nasrnafisligi rivojida uning "Sarob", "Qo'shchinor chiroqlari" romanlari, shuningdek, "Sinchalak" va "O'tmishdan ertaklar" qissalari alohida o'rin tutadi. "O'tmishdan ertaklar" da muallif xotirasida chuqur iz qoldirgan odamlar haqida so'zlaydi. Abdulla Qahhoning o'zi: "Men yoshligimda guvoh bo'lganlarimni yozdim. Haqiqatni, faqat haqiqatni yozdim. Agar bu haqiqat siz - zamonaviy yoshlarga dahshatli ko'rinsa, demak, men bu achchiq haqiqatimni oxirigacha haqiqat hikoyasi - ertak deb nomlayman!" [4], deganlari bugungi kun yoshlariga ibrat sifatida jaranglamoqda.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida o'zgacha fusunkor hikoyalari va ushbu janrning tengsiz ustasi sifatida o'chmas iz qoldirib, o'zbek Chexovi degan ulug'vor maqomga ham erishgan. Uning hikoyalarining tili qisqa, naqlarga boy bo'lib, tili sodda va tabiiy bolajondir. Adib o'z hikoyalarida badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanish evaziga xalqimiz o'zgacha bir o'zbekona soddaligi, bolajonligi, mehmondo'stligini tasvirlab, xalqimizning purma'no maqollari va hikmatlarini ham, turli ideomatik birikmalaridan ham keng foydalanadi.

Abdulla Qahhorning hikoyalarida hajviylik, satirik uslubdagi jihatlar ham yetakchi o'rinni egallab, hikoyalarida insonning qadr-qimmatini pastga uradigan turli-tuman nuqsonlar har xil illatlar badiiy jihatdan teranlik bilan atroflicha tadqiq qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan "Bek", "Og'aynilar", "Ikki yorti bir butun", "Munofiq" kabi hikoyalarda Abdulla Qahhor laganbardorlik, xushomadgo'ylik munofiqlik kabi illatlarni qattiq qoralab, ushbu unsurlar hamisha jamiyatga zararli odamlarning o'zaro

munosabatlariga rahna soluvchi illatlar bo'lib kelgan, ammo muayyan sharoitda bu illatlar ayniqsa munofiqlik odamlar boshiga son-sanoqsiz kulfatlar keltirishini mohirona tasvirlab bergan [5].

Mohir qalam ustasi Abdulla Qahhor satirik hikoyalarida turli-tuman ijtimoiy illatlarni ishonarli satirik tiplarda mujassamlashtirar ekan, shu illatlarni qoralash cheklanib qolmay, uning oqibatlarini, keltirishi mumkin bo'lgan sabablarini ham voqealar rivoji orqali tasvirlash orqali bayon qiladi. U ayni chog'da yangi hayotning qudratli qadamini ham tasvirlab, hayotda turli shakllarda, tulicha ko'rinishlarda namoyon bo'lishini o'z hikoyalarida shunday bir omil qilib oladiki, uning yordamida salbiy kuchlarning zamiridagi kulgi to'la-to'kis ifodalanadi. Lekin, hech qaysi hikoyada qahramon xarakterini to'raligicha ko'rsatmaydi, uning rivojlanish jarayoni bilan tanishtirmaydi. Shuningdek, qahramonlar psixologiyasini chizganda, aniqrog'i, ularning xatti-xarakatini psixologik jihatdan badiiy tasvirlaganda muallif biror o'rinda ortiqcha tafsilot, no'rin cheklanishlarga yo'l qo'ymay, asosan biror aniq chizgilar yordamida yoxud bir necha harakat orqali harakterlarni tasvirleydi. Abdulla Qahhor kamdan kam xollardagina (masalan "Bek" hikoyasida) qahramon xarakterini bayon qilish ta'rif – tavsif yordamida ifodalaydi [6].

A.Qahhor badiiy ijodning hamma yo'nalishlarida qalam tebratib ko'rgan – she'rlar ham yozgan, dramatik asarlar ham yaratgan. Lekin hayot, ozmi –ko'pmi qilib ko'rilgan tajribalar unga nasr yo'nalishi yaqin ekanligin ko'rsatdi. Uning iste'dodi xususiyatlariga, badiiy tafakkur tarziga aynan shu yo'nalishdagi izlanishlari mos kelishi adabiy jarayonda o'z isbotini topa boshladi. Adabiyotimiz rivojida o'z o'rni va salmog'iga ega bo'lgan qator roman va qissalar yaratdi. Bu asrlardan ayrimlari turli darajadagi mukofotlarga ham sazovor bo'lib, katta yozuvchilik shuhratiga, yuksak e'tiroflarga muyassar bo'ldi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, 1968 yilning 25 may kuni Abdulla Qahhorga "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni berilgan, o'limidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan. 2007 yil O'zbekiston jamiyati tomonidan Abdulla Qahhor tavalludining 100-yilligi keng nishonlangan. Toshkentda o'zbek adabiyoti rivojiga bebaho hissa qo'shgan chinakam xalq yozuvchisiga aylangan ijodkorning haykali o'rnatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Sharafiddinov.O Abdulla Qahhor Toshkent 1988
- 2.Qo'shjonov M Abdulla Qahhor mahorati (T): «Adabiyot va San'at»1988
3. H.Abdusamatov."Abdulla Qahhor".T- Badiiy adabiyot nshriyoti.1960
4. A.Qahhor zamondoshlari xotirasida.-T: G'.G'ulom nashriyoti. 1987- yil
5. Umarali Normatov. Mahorat sirlari. T:G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968
6. Sodiq S. So'z san'ati jozibasi. –T., "O'zbekiston", 1996-y